

**ABSTRAKT KONSEPTLARNING IJTIMOIIY, ESTETIK VA FALSAFIY-
EKZISTENSIAL SEMANTIK MAYDONLARI****Matqurbanova Hurshidabonu Marks qizi****Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti stajor-o'qituvchisi****matqurbanovahurshidabonu@gmail.com****<https://orcid.org/0009-0001-3569-5995>****<https://doi.org/10.5281/zenodo.21867903>**

Abstrakt konseptlar inson bevosita ko'rib yoki ushlay olmaydigan, lekin tafakkur orqali anglaydigan tushunchalardir. Bunday tushunchalar alohida holda emas, balki ma'no jihatidan bir-biri bilan bog'langan so'zlar orqali ifodalanadi. Abstrakt konseptlar inson tafakkurining turli qirralarini ifodalab, mazmun jihatidan bir-biridan farqlanuvchi semantik maydonlarni hosil qiladi. Ushbu maydonlarning ayrimlari avvalgi tadqiqotimizda hissiyot va ruhiy holat, aqliy faoliyat hamda axloqiy-ma'naviy qadriyatlar doirasida ko'rib chiqilgan edi. Mazkur tadqiqotda esa abstrakt konseptlarning boshqa guruhlar — ijtimoiy munosabatlar, estetik tushunchalar hamda falsafiy-ekzistensial tushunchalarni ifodalovchi semantik maydonlarga e'tibor qaratiladi.

Ijtimoiy munosabatlar semantik maydoni

Ijtimoiy munosabatlar maydoni abstrakt konseptlarni ifodalovchi semantik maydonlarning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Ushbu semantik maydon jamiyatda insonlar o'rtasida turli xil aloqa va munosabatlarni ifodalovchi leksik birliklarni qamrab oladi. Insonning jamiyatda tutgan o'rnini, jamiyatdagi boshqa shaxslar bilan munosabati, hamkorligi, qarama-qarshiligi, ijtimoiy mavqei kabi tushunchalar mazkur semantik maydon doirasida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy munosabatlar semantik maydoni mazmun jihatidan bir xil bo'lmagan, balki o'zaro semantik aloqalar asosida birlashadigan birliklardan tashkil topadi. Ushbu maydon tarkibida do'stlik, hamkorlik, ishonch, hurmat, mehr, raqobat, qarama-qarshilik, nizolashuv, hokimiyat, bo'ysunish, mavqe, mas'uliyat kabi tushunchalarni ifodalovchi birliklarni ajratish mumkin. Ularning har biri alohida ma'noga ega bo'lsa-da, umumiy holda insonlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarning turli jihatlarini aks ettiradi.

Mazkur maydonni semantik jihatdan bir necha kichik guruhlariga ajratish mumkin. Birinchi guruhni ijobiy ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi birliklar tashkil etadi. Masalan, friendship, trust, respect, cooperation, support, solidarity kabi birliklar insonlar o'rtasidagi ijobiy munosabatlarni ifodalaydi. Mazkur birliklarda yaqinlik, o'zaro ishonch, yordam va hamkorlik kabi semantik belgilar ustunlik qiladi. Masalan, friendship va do'stlik tushunchasi yaqinlik va o'zaro ishonch, yordamni anglatadi. Trust va ishonch esa boshqa bir shaxsning so'zlari, xatti-harakatlari yoki niyatlariga nisbatan ishonishni anglatadi. Shuningdek, ushbu tushunchalarning konnotativ va madaniy tomonlaridan ba'zi tafovutlar kuzatilishi mumkin. Jumladan, o'zbek tilidagi do'stlik tushunchasi ayrim kontekstlarda qarindoshlik, mahalladoshlik, o'zaro yordam va hamjihatlik kabi milliy-madaniy munosabatlar bilan bog'lanishi mumkin. Ingliz tilidagi friendship esa asosan shaxslararo munosabat va individual tanlov asosidagi yaqinlikni ifodalash ma'nolarida ko'p ishlatiladi. Bular esa ikki tilda bir xil umumiy tushunchaning turlicha madaniy va konseptual mazmun kasb etishi mumkinligini ko'rsatadi.

Ikkinchi guruh salbiy yoki konfliktli ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi birliklarni tashkil qiladi. Ingliz tilidagi conflict, hostility, rivalry, opposition, disagreement kabi leksemalar o'zbek tilidagi nizo, adovat, qarama-qarshilik, kelishmovchilik va raqobat birliklarini ifodalaydi. Bu birliklarning umumiy semantik belgisi insonlar yoki ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi qarama-qarshilikning mavjudligidir. Lekin bu birliklar o'rtasida ham ma'no jihatidan, ya'ni qarama-qarshilikning darajasi va xarakteriga ko'ra farqlar mavjud. Masalan, disagreement va kelishmovchilik fikrlarning mos kelmasligini bildirsa, conflict va nizo nisbatan kuchliroq qarama-qarshilikni anglatadi, hostility va adovat esa salbiy va dushmanona munosabat semasini o'z ichiga oladi. Demak, ushbu birliklar bir umumiy semantik maydon tarkibida joylashgan holda, intensivlik va munosabat xarakteriga ko'ra farqlanadi.

Uchinchi guruh ijtimoiy mavqe, hokimiyat va boshqaruv munosabatlarini ifodalovchi birliklardan iborat. Authority, power, leadership, status, position, control, obedience kabi birliklar insonning jamiyatdagi o'rnini yoki muayyan guruhdagi mavqeini hamda boshqa shaxslar bilan ierarxik munosabatini ifodalaydi va o'zbek tilida hokimiyat, kuch, rahbarlik, mavqe, lavozim, nazorat, bo'ysunish kabi birliklar bilan ifodalanadi. Bu guruhdagi birliklar o'rtasidagi semantik munosabatlar, ayniqsa, qarama-qarshilik va darajalilik asosida namoyon bo'ladi. Authority va hokimiyat birliklari ijtimoiy mavqe, boshqaruv, ta'sir semalariga ega. Ammo bu so'zlar to'liq ekvivalent emas. Authority so'zi ko'pincha ingliz tilida qonuniy yoki institutsional vakolat ma'nosini ham anglatadi: legal authority, parental authority. O'zbek tilidagi hokimiyat esa davlat boshqaruvi yoki siyosiy hokimiyat ma'nosida faol ishlatiladi.

Leadership va rahbarlik juftligida esa umumiy semantik asosni boshqarish, yo'naltirish, guruh, ijtimoiy rol kabi ma'nolar tashkil qiladi. Leadership shaxsning guruh yoki tashkilotni boshqarish qobiliyati va jarayonini bildirsa, rahbarlik ham boshqaruv faoliyatini anglatadi. Lekin ingliz tilida leadership ko'pincha boshqaruv qobiliyati va shaxsiy fazilatlar bilan ham bog'lanadi: strong leadership, effective leadership. O'zbek tilida rahbarlikni lavozim va boshqaruv faoliyati bilan bog'lash mumkin.

Ijtimoiy mavqeni ifodalovchi status va mavqe birliklari ham semantik jihatdan yaqin hisoblanadi. Ingliz tilida status so'zi huquqiy, texnik yoki rasmiy holat ma'nolarida, o'zbek tilida mavqe esa asosan shaxs yoki guruhning jamiyatdagi o'rni, nufuzi va holatini ifodalaydi. Lekin social status – ijtimoiy mavqe birikmasi ikki tilda ham insonning jamiyatdagi o'rnini ifodalaydi.

Estetik tushunchalar semantik maydoni

Estetik tushunchalar maydoni insonning borliq, tabiat, san'at va atrof-muhitni baholashi va go'zallik hamda xunuklikni idrok etishi bilan bog'liq abstrakt konseptlarni qamrab oladi. Xususan, *beauty*, *ugliness*, *elegance*, *harmony*, *grace* kabi so'zlarga o'zbek tilida **go'zallik**, **xunuklik**, **nafislik**, **uyg'unlik**, **latofat** kabi tushunchalar mazmunan yaqindir. Bu tushunchalarning ko'pchiligi umumiy konseptual mazmunga ega, lekin qo'llanish doirasi va ma'no nozikliklarida ayrim farqlar kuzatiladi. Masalan, *beauty* va **go'zallik** inson, tabiat yoki san'atdagi estetik jozibani ifodalasa, *elegance* va **nafislik** ko'proq noziklik, did va shakldagi mukammallik bilan bog'lanadi. *Harmony* va **uyg'unlik** esa qismlarning o'zaro mutanosibliigi va bir-biriga mosligini bildiradi. Shu jihatdan mazkur birliklar bir umumiy estetik konseptual maydon tarkibida turli semantik munosabatlar orqali birlashadi.

Xususan, *beauty* va **go'zallik** kengroq estetik bahoni ifodalab, inson, tabiat va san'at kabi turli obyektlarga nisbatan qo'llanishi mumkin. *Ugliness* va **xunuklik** esa estetik bahoning salbiy tomonini ifodalovchi birliklar sifatida ushbu maydonning qarama-qarshi qutbini tashkil etadi.

Shu jihatdan *beauty* va *ugliness* hamda **go'zallik** va **xunuklik** o'rtasida semantik qarama-qarshilik mavjud.

Elegance va **nafislik** birliklari esa estetik jozibaning noziklik, did va shakl bilan bog'liq jihatlarini ko'proq ifodalaydi. *Grace* va **latofat** birliklarida ham yoqimlilik va nafislik ma'nolari ustun bo'lib, ular insonning tashqi ko'rinishi yoki xatti-harakatiga nisbatan qo'llanishi mumkin. Biroq **latofat** o'zbek tilida estetik joziba bilan bir qatorda noziklik va yoqimlilik ma'nolarini ham ifodalashi bilan ajralib turadi.

Harmony va **uyg'unlik** birliklari esa predmet yoki hodisaning tarkibiy qismlari o'rtasidagi mutanosiblik va moslikni ifodalaydi. Masalan, *harmony in colors* birikmasida turli ranglarning bir-biriga mosligi va uyg'unligi nazarda tutiladi. O'zbek tilidagi **ranglar uyg'unligi** birikmasi ham xuddi shunday mazmunni ifodalaydi. Shu jihatdan *harmony* va **uyg'unlik** estetik maydonda go'zallikning muayyan ko'rinishini, ya'ni qismlar o'rtasidagi mutanosiblik va moslikni ifodalovchi konseptlar sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, estetik tushunchalar maydonida ijobiy va salbiy estetik bahoni ifodalovchi birliklar, shuningdek, nafislik, yoqimlilik va mutanosiblik kabi estetik xususiyatlarni bildiruvchi birliklar o'zaro munosabatga kirishadi. Ingliz va o'zbek tillaridagi mazkur birliklarning qiyosiy tahlili umumiy insoniy estetik tasavvurlar bilan bir qatorda, ularning milliy-madaniy ifodalanish xususiyatlarini ham ko'rsatadi.

Falsafiy va ekzistensial tushunchalar semantik maydoni

Falsafiy va ekzistensial tushunchalar maydoni shaxsning mavjudligi, hayot mazmuni, erkinligi, taqdiri va borliq haqidagi tasavvurlarini ifodalovchi abstrakt konseptlarni birlashtiradi. Ingliz tilida *existence, freedom, life, death, destiny, eternity, meaning* kabi birliklar ushbu maydonni shakllantirsa, o'zbek tilida mavjudlik, erkinlik, hayot, o'lim, taqdir, abadiyat, ma'no kabi birliklar qo'llanadi. Ushbu konseptlar boshqa abstrakt tushunchalarga nisbatan yanada umumiy va falsafiy xarakterga ega. Masalan, *existence* va mavjudlik borliqning mavjud bo'lish holatini, *freedom* va erkinlik insonning tanlash va mustaqil harakat qilish imkoniyatini anglatadi. *Life* va hayot insonning yashash holatini, *death* va o'lim esa hayotning yakunlanishini ifodalovchi o'zaro qarama-qarshi konseptlar sifatida namoyon bo'ladi. *Destiny* va taqdir birliklari esa inson hayotining oldindan belgilangan yoki kutilayotgan yo'nalishi haqidagi tasavvurlar bilan bog'liq. Mazkur birliklarning semantik mazmuni nafaqat umumiy insoniy tushunchalarni, balki har bir xalqning dunyoqarashi va madaniy tajribasini ham aks ettiradi. Yuqoridagi uchta semantik maydonning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillarida abstrakt konseptlarni ifodalovchi ko'plab birliklar umumiy mazmuniy asosga ega. Biroq ularning semantik qamrovi, qo'llanish xususiyatlari va ayrim ma'no nozikliklari tilning milliy-madaniy xususiyatlari bilan bog'liq holda farqlanadi. Ayniqsa, ijtimoiy munosabatlar, estetik va ekzistensial tushunchalar insonning jamiyat, borliqqa va o'ziga bo'lgan munosabatini turli jihatlardan aks ettirishi bilan ajralib turadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Trier, J. *Der deutsche Wortschatz im Sinnbezirk des Verstandes*. Heidelberg: Winter, 1931.
2. Lehrer, A. *Semantic Fields and Lexical Structure*. Amsterdam: North-Holland Publishing Company, 1974.
3. Cruse, D. A. *Lexical Semantics*. Cambridge: Cambridge University Press, 1986.

4. Rahmatullayev, Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Universitet, 2006.
5. Mengliyev, B. Hozirgi o'zbek tili. Toshkent: Excellent Polygraphy, 2020.